

DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Zokirov Shoxruxbek Zohidjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15646143>

Annotatsiya: Tezida O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishning mavjud huquqiy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Qonunlar, Prezident farmonlari va yillik dasturlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional va huquqiy mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni tizimli boshqarish imkonini yaratishi tahlil etiladi.


Kalit so'zlar: Korrupsiya, korrupsiyaviy xavf, davlat boshqaruvi, huquqiy asos, xalqaro ichki nazorat, qonun, Prezident farmoni, davlat dasturi.

Kirish. Mavjud qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari va mexanizmlari belgilangan bo'lsa-da, huquqiy normalarni real hayotda amalda qo'llash imkoniyatlari hali ham yetarli emas. Shu sababli, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish, bir-birini takrorlovchi yoki qarama-qarshi normalarni muvofiqlashtirish orqali normativ-huquqiy bazani yanada izchil va amaliy holatga keltirish zarur.

Bugungi kunga kelib mamlakatizmida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha 20 ta normativ huquqiy-hujjatlar qabul qilindi¹. Lekin so'ngi yillardagi statistikaga yuzlansak korrupsiya yana ham jadal suratlarda tomir otganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ya'ni, so'ngi yillarda O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan moddiy zarar miqdori oshib bordi (Qarang 1-ilova). Asosan zarar davlat xaridlari sohasida keltirilgani ham ahamiyatli (Qarang 2-ilova). Shuningdek, korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etgan shaxslar dinamikasi ham hali ortga qaytganicha yo'q (Qarang 3-ilova). To'g'ri buni bugungi kunda korrupsiyaga oid jinoyatlarni fosh etishda qator yutuqlarga erishayotganimiz bilan izohlashimiz ham mumkin. Lekin, bu statistikani pasaytirish bizning vazifa va maqsadizmi hisoblanadi. Yuqoridagi 20 ta normativ-huquqiy-hujjatdan ayrimlari aynan davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va ularni baholash kabi masalalarni tartibga solishi bilan ham ahamiyatli.


¹ <https://gov.uz/oz/uzbmb/pages/corr-doc>

Asosiy qism. Hozirgi kunda davlat boshqaruvida korrupsiyani aniqlash, bartaraf etish va baholash bo'yicha 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonuni² muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, bu



1-Ilova. So'ngi yillarda O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga etkazilgan moddiy zarar miqdori.

Manbalar: <https://anticorruption.uz/>, <https://kun.uz>, <https://www.gazeta.uz>, <https://daryo.uz/>, <https://oz.sputniknews.uz/>



2-Ilova. Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tomonidan 2024-yil yakuni bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra Davlat xaridlariga doir qonun buzilishlari.

Manba: <https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-tizimini-tahlil-va-monitoring-qilish-boshqarmasi-tog'risida>


nazorat o'tkazilishini ta'minlash, davlat fuqarolik xizmatchisining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiyalash tizimini joriy etish, davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan sovg'alar olish va berish tartibini belgilash, davlat fuqarolik xizmatchisining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini yoki moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash kabilardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik

² O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/mact/-3088008>

³ O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6145972>

ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-sonli qarorida⁴ Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab berilgan.



3-Ilova. O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etgan shaxslar dinamikasi.

Manbalar: <https://kun.uz/14140763>, <https://uza.uz>

yangi bosqichlardan biri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6013-son farmonida⁶ davlat xizmatiga halollik standarti ("halollik vaksinasi") va manfaatlar to'qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko'maklashish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari orqali samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha choralarning ishlab chiqilishi va joriy etilishiga ko'maklashish va shunga o'xshash qator chora-tadbirlar belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoniga⁷ asosan davlat boshqaruvida korrupsiyani aniqlash, baholash va uni bartaraf etish bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Ya'ni ushbu farmonga ko'ra: Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish. Davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish. Davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish.

Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6000285>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-6676585>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonida. <https://lex.uz/uz/docs/-4875784>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/mact/-5841063#-5843875>

shakllantirish.

Davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish. Davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berish va uni hal etish tizimini joriy etish.

Davlat fuqarolik xizmati tizimiga kiruvchi davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni ishga qabul qilishda ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olishning yagona qoidalarini ishlab chiqish.

Davlat xizmatiga kirish va uni o'tash, kadrlar zaxirasini shakllantirish, xodimlarni baholash bilan bog'liq jarayonlarni raqamlashtirishni nazarda tutuvchi "Raqamli davlat xizmati" loyihasini amalga oshirish.

Davlat xizmatida sohalar kesimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish.

Davlat xizmatchilari va davlat organlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash bo'yicha reyting tizimini joriy etish.

Davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish.

Davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berish va uni hal etish tizimini joriy etish.

Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish. Korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish. "E-antikorrupsiya" loyihasini amalga oshirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo'llab-quvvatlash.

Korrupsiyaga moyil sohalarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash va bunga keng jamoatchilikni jalb etish. Korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotiga tizimli preventiv choralarni kuchaytirish.

Korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan amaliy choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiya"ni joriy etish orqali sohaga doir huquqiy bilim va ongni yuksaltirish bo'yicha keng qamrovli tizimini joriy qilish. Davlat xizmatchilarini korrupsiyaga qarshi milliy sertifikatsiyalash tartibini tatbiq etish kabi qator chora-tadbirlar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmonida⁸ esa Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish.

"Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog'onaga ko'tarilishga erishish.

Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish.

Davlat xaridlarini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag'larni talon-toraj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo'yicha jamoatchilik nazoratini to'laqonli joriy qilish. 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning "korrupsiyadan xoli qonunchilik" tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta'minlash kabi vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga⁹ ko'ra davlat tashkiloti tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar har yili 1-martgacha baholanadi.

Shuningdek, ushbu buyruqga asosan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo'linma yoki ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat tashkiloti faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi past, o'rta, yuqori o'lchovlarda baholanadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida davlat tashkilotining umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va "E-anticor.uz" elektron platformasiga har yili 1-fevralga qadar kiritiladi.

Yuqoridagi normative-huquqiy hujjatlar albatta izchil qabul qilingan. Ushbu hujjatlarga qo'shimcha ravishda xalqaro tajribaga asosan esa biz quyidagilarni tahlil qilishimiz mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro standart va tamoyillarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Ushbu konvensiya korrupsiyani oldini olish, jinoyatlarni aniqlash va jazolash, aktivlarni qaytarish hamda xalqaro hamkorlik kabi yo'nalishlarda qat'iy choralarni nazarda tutadi.

Mazkur konvensiyada nazarda tutilgan qoidalarni milliy qonunchilikka to'laqonli va amaliy tarzda singdirish O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro darajadagi samaradorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Yevropa Kengashining GRECO tashkiloti tajribalari, OECD tavsiyalari va Transparency International me'zonlari ham milliy qonunchilikda aks ettirilishi mumkin bo'lgan xalqaro manbalar sifatida qaraladi.

Shuninhdek, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarni kuchaytirish, ayniqsa, yuqori lavozimdagi amaldorlar tomonidan sodir etilgan holatlar uchun qat'iy javobgarlik mexanizmlarini joriy etish, huquqiy tenglik prinsipini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Amaliyotda ayrim yuqori mansabdor shaxslarning jazosiz qolishi, davlat xizmatining ochiqqligiga va odillik tamoyiliga putur yetkazadi. Shu bois, yuqori lavozimdagi

⁹ O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6178891>

shaxslar uchun alohida axloqiy va huquqiy javobgarlik standartlari belgilanib, ularning faoliyati ustidan real va samarali nazorat tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.

Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi, moliyaviy manfaatdorlikni yashirish, noqonuniy boylik orttirish kabi korrupsiyaviy holatlarni aniqlovchi aniq va qat'iy me'yorlarni belgilash bugungi kun talabi hisoblanadi.

Nazariy jihatdan yaxshi ishlab chiqilgan huquqiy normalar ularning amalda to'laqonli qo'llanilishisiz o'z samarasini bermaydi. Shu sababli:

Har bir davlat organi va mansabdor shaxslar faoliyati uchun axloqiy kodekslar ishlab chiqilishi va ularning amaliyotda bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilishi lozim.

Davlat xaridlari, tenderlar va subsidiyalar berish jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerak.

Elektron hujjat almashinuvi, raqamli monitoring tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalari yordamida korrupsion xavflarni aniqlovchi huquqiy asoslar yaratish bugungi global standartlarga javob beradi.

Binobarin, korrupsiyani yoqotish va unga qarshi kurashish hujjatlar bilan qanchalik tartibga solinmasin inson omiliga borib taqalishi tabiiy. Bu esa, jamoatchilikdan, har birimizdan korrupsiya deya atalmish illatni vaqtida payqash, o'zi va yaqinlarini undan himoya qilish, ayniqsa, boshqa shaxslarning huquqlari buzilishiga yol qoymaslik kabi insoniylik burchlari ado etilishini talab etadi¹⁰.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi huquqiy asoslarni takomillashtirish – davlat boshqaruvi islohotlarining poydevori hisoblanadi. Bu jarayonda xalqaro tamoyillarni singdirgan holda, milliy qonunchilikni real hayotga moslashtirish, javobgarlikni kuchaytirish va amaliy mexanizmlarni joriy etish orqali korrupsiyaning ildiziga zarba berish mumkin. Bu esa davlatning barqaror rivojlanishini, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini va xalqaro maydondagi obro'sini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/mact/-3088008>
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6145972>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6000285>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-6676585>

¹⁰ Nurmatova, N. U. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH XALQARO STANDARTLARI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(2), 322-329.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonida. <https://lex.uz/uz/docs/-4875784>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/mact/-5841063#-5843875>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
8. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6178891>
9. Nurmatova, N. U. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH XALQARO STANDARTLARI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(2), 322-329.
10. <https://gov.uz/oz/uzbmb/pages/corr-doc>